

Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining Farg'ona filiali faoliyati o'rganildi

So'nggi yillarda Davlatimiz Rahbari va Hukumatimiz tomonidan ilm-fanga, olimlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularga qulay-shart-sharoitlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida olimlar mamlakatimizni yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda.

Xususan, Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti tizimdagi o'simlikshunoslik yo'nalishidagi yirik tadqiqot muassasasi hisoblanadi. Mazkur muassasa olimlari tomonidan yaratilayotgan g'alla, g'o'za va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari navlari respublikamizning turli hududlarida muvaffaqiyatli yetishtirilmoqda.

Joriy yil 8-9-avgust kunlari Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining Farg'ona filialida olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Fanlar akademiyasi prezidenti B.Yuldashev boshchiligidagi bir guruh mutasaddilar hamda Farg'ona viloyati hokimining qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari A.M.Tursunov Filialga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida mutasaddilar filial faoliyati, olimlar tomonidan g'o'za, donli va don-dukkakli ekinlarning yangi navlarini yaratish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.





Filial faoliyati tanqidiy ko'rib chiqilib, faoliyat yo'nalishlarini kengaytirish va mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar hamda agroklastlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.